ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DEYKSIS VA ANAFORA TUSHUNCHALARI: O'XSHASH VA FARQLILIKLAR

Kurbanova Muhabbat Matyakubovna,
O'zbekiston Milliy universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri
filologiya fanlari doktori, professor

Sarbarova Dilnoza Nosirjon qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Nutq jarayonida so'zlovchi axborot uzatar ekan, uning mazmunida voqelik sodir bo'layotgan (bo'lgan) makon, payt hamda voqelik ishtirokchilariga ishora mavjud bo'ladi. Bunday ishoraviylikni yuzaga keltirishda deyktik birliklarning o'rni va ahamiyati katta bo'lib, deyksisni hosil qiluvchi, matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi vositalar matn shakllanishida asosiy vosita rolini bajaradi. Bu vositalar haqida qilingan ishlarda turlicha yondashilganligini ko'rish mumkin. R.Lakkof, Ch.Fillmor[1] va Sh.Safarov[2] ishlarida mazkur birliklar «diskurs deyksisi», D.A.Akselrud tomonidan «tekst deyksisi»[3], K.Byuler tomonidan «kontekst deyksisi»[4] terminlari bilan atalgan. O'zbek tilshunosligida deyksis haqida monografik tadqiqot olib borgan R.Davlatova esa bunday birliklarni «matn tarkibiy qismlari» deb qo'llagan[5].

O'zbek tilshunosligida matnning lingvopoetik tadqiqi bo'yicha ish olib borgan M.Yo'ldoshev ishlarida matn qismlarini bog'lovchi vositalar sirasiga olmosh, makon va zamonni ifodalovchi birliklar ham kiritilgan[6]. Deyktik birliklar matn tarkibiy qismlariga ishora qilish bilan birga tuzilma tarkibining bir-biriga uzviy bog'liqligini va mazmunan yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalardir. Tadqiqotchi M.Umurzoqova ham segment qurilmali gaplarni izohlash uchun keltirilgan gaplarda ko'rsatish olmoshining faol qo'llanishini ta'kidlab, matn yaratish imkoniyatiga egaligini ta'kidlagan edi[7]. Deyktik birliklar matn tarkibiy qismlari orasidagi sintaktik aloqani o'rnatib, bog'lovchilik vazifasini ham bajaradi. Mazkur deyktik birliklar matn tarkibiy qismlarini mazmunan bog'lash bilan birga, matn tuzilishidagi izchillikni ta'minlash, matnda aks etgan axborotga tinglovchi diqqatini jalb qilish maqsadlarini yuzaga chiqarishda ham faol qo'llanadi[8]. Anglashiladiki, deyktik birliklar matnni tarkib toptirishda bir emas, bir qancha vazifalarni bajaradi.

She'riy matnlarni tahlil qilar ekanmiz, shoir she'rlarida deyktik birliklarning turli vazifalarni bajarganligini guvohi bo'lamiz. She'riy matnlarda ushbu vazifalarni bajararuvchi deyktik birliklar sifatida asosan olmosh va olmoshli qurilmalar, ba'zi mustaqil va yordamchi so'zlar, ayrim so'z birikmalari hamda gaplar, shuningdek, kirish qurilmalar ham qo'llanadi. Bular matnda deyktik vazifa bajarganda o'zidan oldingi yoki o'zidan keyingi gaplarga ishora qiladi.

Noma'lum askarning mozori. Mana,
Gul qo'ydim. Bir umr hurmatim unga.
«*Unutding*»*, deb momo qilmang ko'p ta'na,*
Sizning qabringiz ham bilaman shunda
(Yurak, 288-b)

Yuqorida keltirilgan misralarda she'r qahramonining askar mozoriga gul qo'yish uchun kelgani, shuningdek, momosining ham qabri shu yerda ekanligini unutmagani ifodalangan. So'nggi misraning oxirida keltirilgan *shunda* so'zi orqali qabristonga ishora qilingan.

[1] Lakoff Robin T. Remarks on this and that. – CLS10, 1974. – P.245-356; Fillmore Charles. Lectures on deixis. – Stanford: CSLI Publications, 1997. – P. 73.

[2] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 173.

[3] Акселруд Д.А. Контекстуалные связи односоставных безглаголных предложений в английском языке (на материале произведений В.Шекспира): Дисс. канд. филол. наук. – Ленинград, 1975. – С. 68.

[4] Бюлер К. Теория языка. – М.: Прогресс, 1993. – С. 316.; Коровина И.В. Параметры дейктической процедуры в англоязычной научной коммуникации. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Иванова, 2011. – С 25.

[5] Давлатова Р. Матн таркибида ишора бирликлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №2. Б. 100-104.

[6] Yo'ldoshevM., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2010. – Б. 19.

[7] Умурзоқова М. Ўзбек тилида сегмент қурилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол. фан.бўйича фалсафа док (PhD) дисс. ... автореф. –Тошкент, 2019. – Б.21.

[8] Давлатова Р. Кўрсатилган манба. Б.100-104.

R.Davlatova o‘z tadqiqotlaridan birida ayrim morfodeyktik birliklar to‘g‘risida so‘z yuritib, ularni ishora yo‘nalishiga qarab quyidagi turlarini ajratadi:

a) matnda oldingi tarkibiy qismga ishora qiluvchi deyktik birliklar;

b) matnda keyingi tarkibiy qismga ishora qiluvchi deyktik birliklar;

c) matnda oldingi va keyingi qismga ishora qiluvchi deyktik birliklar[1].

Pragmalingvistikada anafora va deyksis o‘xshash hamda yondosh hodisalar sifatida baholanadi. Anafora nutqda deyktik birliklar orqali reallashadi. «Anafora deyktik mazmundan xoli emas, bu ikki vazifa yagona bir kontekstda, ayni bir paytning o‘zida bajarilishi mumkinligini hozircha hech kim inkor etganicha yo‘q»[2]. Sh.Safarov o‘zining Pragmalingvistika nomli monografiyasida deyksis va anaforani farqlash lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, «deyktik iboralar referent haqida ma’lumot bersa, anaforik olmoshlar ushbu voqelik (obyektni) qayta takrorlaydilar. Ammo bu ikki hodisa o‘rtasidagi farqni ham topmoq lozim: olmosh yoki boshqa ibora matnning ma’lum qismiga ishora qilganida diskurs deyksisi mavjud, biroq olmosh va matndagi boshqa bir lisoniy belgi bir xil referent bilan bog‘liq bo‘lganida, anafora hodisasi namoyon bo‘ladi»[3].

Hozirga qadar tilshunoslikda deyksis hamda anafora hodisalari aniq chegaralanmagan. Ushbu hodisalar to‘g‘risida ayrim tadqiqotchiolimlar bir-biriga zid bo‘lgan qarama-qarshi fikrlarni bildirishadi. Jumladan, N.N. Volkov «deyksis» va «anafora» tushunchalarini shunday chegaralab beradi: sub’ektiv deyksis nutqiy faoliyat vaziyatining tarkibiy qismlarini ko‘rsatsa, «anafora» esa aynan matn tarkibiy qismlarini, ya’ni bir nutq faoliyatining boshqa biriga muayyan tenglashtirilishini ifoda etadi. Demak, «anaforik ko‘rsatish deyksisning xususiy ko‘rinishidir»[4]. Anaforik olmoshlar transformatsiya davomida pronominalizatsiya orqali ko‘zga tashlansa, bu o‘rinda deyktik olmoshlar esa ma’lum til strukturasida allaqachon o‘z ifodasini topadi. Anafora referentni ma’lum qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, deyktik ko‘rsatish referentning mavjud ekanligini hisobga oladi[5]. Anafora va deyksis hodisalarining funksionalligi ham bir-biriga yaqin. Chunki ular ikkalasi uchun ham referentni aniqlashda tinglovchiga ko‘mak berishda yodga solish yoki ko‘rsatish jihatlari bog‘liq hisoblanadi.

Anaforaga oid dastlabki tadqiqotlarda anaforik iboralarning sintaktik va semantik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. 1960-1970-yillardan boshlab tadqiqotchilar tomonidan anaforaning pragmatik jihatlarini, masalan, anaforik iboralarning nutq tuzilishi, axborotni tahrirlash va umumiy bilimlarni boshqarishdagi rolini o‘rganish boshlangan. Shundan so‘ng ko‘plab tilshunos olimlar nutqiy harakat va anafora o‘rtasidagi munosabatlarnini tadqiq qilishdi.

Agar ifodalanayotgan fikr matn doirasiga tayangan bo‘lsa, bu anaforik holat hisoblanadi. Agarda ifodalanayotgan fikr matni bo‘lmagan doiraga qaratilgan bo‘lsa, bu deyktik holat hisoblanadi[6]. Shuningdek, Ye.V. Paducheva bu ikki atama bo‘yicha quyidagi fikrlarni bildiradi: «mazmunida nutq vaziyati yoki nutq faoliyati ishtirokchilariga havola mavjud bo‘lgan olmosh deyktik birlikdir. Matnga havola vazifasini o‘tovchi olmosh esa anaforik birlik tavsifini oladi[7]«.

Olmon tilshunos olimi K. Eglixning[8] tadqiqot ishida boshqa olimlar fikrlaridan farqli qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. U anafora va deyksisni o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq hodisalar kanligini ta’kidlaydi. Bu ikki hodisaning bir-biriga o‘xshash tomonlari ular nutqda ham bir-biriga o‘xshash vazifalarni bajarib kelishida va adresatning diqqat-e’tiborini kommunikativ jarayonga tortishida ekanligini aytadi. Shuningdek, ular o‘rtasidagi farqni deyksis bir nutq birligini boshqasi bilan bog‘lasa, anafora esa ko‘pincha koreferent (hamreferent) ko‘rsatish vazifasini bajaradi, deya izohlaydi.

Ingliz ilmiy – texnik matnida deyksisning ifodalanishi bo‘yicha tadqiqot olib borgan A. Shermatov ham o‘zining tadqiqot ishida bu ikki hodisa haqida to‘xtalib o‘tgan: «biz deyksis va anaforani ko‘rsatishning ikki turi sifatida talkin qilish tarafdorimiz. Bundan tashqari, deyksis muloqotning aniq jarayonini ruhiy idrok etish vaziyati uchun, anafora esa muallif nutqi uchun ko‘proq xos ekanligini unutmaslik lozim. Deyktik ko‘rsatish implitsit namoyon bo‘ladigan muayyan matn

[1] Давлатова Р. Матн таркибида ишора бирликлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №2. Б.100-104.

[2] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 187.

[3] Кўрсатилган манба – Б. 196.

[4] Волков Н.Н. Семантика и дейктические функции личных местоимений в современном английском языке: Автореф. дис.... канд. филол. наук. М.: МГПИИЯ, 1984. С. 8.

[5] Consten M. Towards a unified model of domain-bound reference // Deictic Conceptualisation of Space, Time and Person Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2003. – P. 224.

[6] Шерматов А. Инглиз илмий-техник матнида дейксиснинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б.13

[7] Падучева Е.В. Высказывание и его соотнесенность с действительностью (референциальные аспекты семантики местоимений). М.: Наука, 1985. – С. 133.

[8] Ehlich.K. Anaphora and Deixis: Same, Similar or Different? // Speech, Place and Action: Studies in Deixis and Realted Topics Chichester etc.: Wiley, 1982-P. – 318-331.

anaforik qurilmalarda o‘zining eksplitsit ifodasini topadi»[1].

Anaforik iboralar jumlalarni kontekstda talqin qilishda, nutq izchilligini saqlashda, shuningdek, nutq munosabatlarini boshqarishda va aqliy modellarni qurishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida «u» va «bu» kabi ko‘rsatish olmoshlari anaforik holatda eng faol qo‘llanadigan olmoshlar sanaladi. Buni quyidagi misollar orqali ham ko‘rishimiz mumkin:

O‘tgan zamonda bir boy bor ekan. Uning bir eshagi va bir ho‘kizi bor ekan. U odamning yeri ko‘p ekan, bu yerlarni qarol − qo‘shchilarga ektirib, kun o‘tkazar ekan[2].

Ko‘rinib turganidek anaforaning xususiyatlari matn orqali amalga oshadi. U ko‘p hollarda o‘zidan avval kelgan birliklarga ishora qilib keladi. Quyida keltirilgan misollar orqali ham anaforaning deyksisdan farqli va o‘xshash jihatlari yanada anglashiladi.

Uzoq shaharda bir qurandoz bor ekan. U yurib-yurib, shu shaharga kelib qolibdi. To‘rt yuz qurandozning daragini eshitib, ularning yoniga kelibdi[3].

Anafora avval keltirilgan so‘z yoki jumlaga ishora qiladi, deyksis esa kontekstdagi biror narsaga ishora qiladi. Anafora ham, deyksis ham nutqda uyg’unlikni yaratish va ixchamlikka erishish uchun ishlatilishi mumkin. Ular bir xil ob’ektlar yoki bir xil vaziyatga murojaat qilish orqali nutqning turli qismlarini bir-biriga bog’lashga ko‘mak beradi. Ko‘plab ilmiy manbalarda deyksisning anaforadan farqlash lozimligi haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Bizningcha ham bu hodisalarni farqlash maqsadga muvofiq. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, anafora ham ishora qilish, ko‘rsatish kabi vazifalarni bajaradi va u deyksis bilan doimiy aloqadagi hodisadir.

Rezume. Anafora va deyksis til va kontekst o‘rtasidagi munosabat bilan bog’liq bo‘lsa-da, ular o‘ziga xos funksiyalari va xususiyatlari bilan farqlanadi. Ushbu maqolada deyksis va anafora o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rib chiqilgan. Olimlarning fikrlaridan keltirilgan va talqin qilingan. Deyksis va anaforaning o‘rganilishi haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu ikki tushuncha haqidagi fikrlar misollar bilan ifodalangan.

Resume. Anaphora and Deixis relationship between language and context although related, they differ in their specific functions and characteristics. This article examines the similarities and differences between Deixis and anaphora. Cited and interpreted from the opinions of scientists. References have been made to the study of Deixis and anaphora. Opinions about these two concepts are represented by examples.

Резюме. Анафора против дейксиса отношения между языком и контекстом хотя они связаны друг с другом, они различаются по своим функциям и характеристикам. В этой статье рассматриваются сходства и различия между дейксисом и анафорой. Цитируется и интерпретируется из мнений ученых. Даны сведения об изучении дейксиса и анафоры. Представления об этих двух понятиях представлены примерами.

[1] Шерматов А. Инглиз илмий-техник матнида дейксиснинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б.13.

[2] Ertaklar, maqollar, topishmolar / – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijod uyi, 2019.– B.4.

[3] O‘zbek xalq ertaklari. Ota vasiyati. – T.: O‘qituvchi, 2013. – B.384.